

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XRONONIMLARNING QIYOSIY-MADANIY TAHLILI

Ahmadjanova Iroda¹

Turan Internatsional University

KEYWORDS

xrononim, ingliz tili, o'zbek tili, madaniy tafakkur, semantik tahlil, toponimika, tarixiy-madaniy kontekst, qiyosiy tahlil, til va madaniyat, vaqt tushunchasi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi xrononimlar, ya'ni vaqt bilan bog'liq toponimik birliklarning lug'aviy, semantik va madaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. O'zbek va ingliz tilidagi xrononimlarning shakllanishi, ularning tarixiy-madaniy kontekstdagi o'rnini, milliy tafakkurdagi ifodasi, xrononimlardan foydalanishdagi o'xshashlik va farqlar aniqlanib, bu hodisalarning tilshunoslik hamda madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan talqini berilgan. Maqola ingliz va o'zbek xalqlari dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va "vaqt" tushunchasini aks ettirishda xrononimlarning tutgan o'rnini yoritishga xizmat qiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15273496**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH

Til insonlarning asosiy aloqa vositasi sifatida jamiyatdagi barcha o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Ijtimoiy hayotning istalgan sohasidagi muloqot jarayonida til juda muhim rol o'ynaydi. Jumladan, siyosatchilar jamiyat e'tiborini jalb qilish, jamiyatni bitta siyosiy kuchni qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirishda tildan o'rinli foydalana olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Til – bu xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va tafakkur tarzini ifoda etuvchi asosiy vositadir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, har qanday til birliklarining chuqur tahlili orqali jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayoti, dunyoqarashi va qadriyatlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Ayniqsa, xrononimlar vaqt bilan bog'liq nomlar – tarix va madaniyatni o'zida aks ettiruvchi muhim semantik birliklar sirasiga kiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu qiyosiy tadqiqot turli madaniy kontekstlardan kelib chiqqan ikki til – ingliz va o'zbek

¹ Turan Internatsional University Ingliz filologiyasi fakulteti 2 kurs magistranti.

tillariga qaratilgan. G'arb jamiyatlarida keng qo'llaniladigan ingliz tili, odatda, individuallik, shaxsiy mustaqillik va o'z kuchiga tayanishni targ'ib qiluvchi muhitda shakllangan. Ingliz tilida so'zlashuvchi madaniyatlarda shaxsiy yutuqlar jamiyat va kasbiy hayotning markaziga qo'yiladi, ish, dam olish, salomatlik va oila bilan bog'liq so'z boyligi esa aynan shu individuallik ruhida shakllangan. Ingliz tili shunday dunyoqarashni ifodalaydiki, unda shaxsiy muvaffaqiyat, mustaqillik va individual maqsadlar yuqori qadrlanadi, ijtimoiy munosabatlar esa ko'proq shaxsiy aloqalar va yutuqlar nuqtayi nazaridan baholanadi.

Bunga qarshi o'laroq, O'zbek adabiy tili Markaziy Osiyo madaniy an'alariga chuqur ildiz otgan bo'lib, unda jamoaviy qadriyatlar ustuvor o'rin egallaydi. O'zbek madaniyatida oila, jamoa va ijtimoiy mas'uliyat insonning shaxsiyati va kundalik hayotini shakllantirishda markaziy o'rinni egallaydi. O'zbek tili o'zaro bog'liqlik, jamoaviy qo'llab-quvvatlash va umumiy farovonlik g'oyalarini targ'ib qiladi. Bu oila, salomatlik va ma'naviyat kabi sohalarni qanday tushunish va muhokama qilishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbek tilidagi ushbu hayotiy faoliyatlarga oid leksik tarkib individual intilishlardan ko'ra ko'proq ijtimoiy aloqalar, oila tuzilmalari va umumiy mas'uliyatlar ahamiyatini ifodalaydi. Xrononimlarning tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishi tilshunoslikni yangi tadqiqotlar bilan boyitdi.

A.V.Superanskaya xrononimlarni onomastikaning muhim tarmoqlaridan biri sifatida baholab, ularni insoniyat tarixiy tafakkurining lingvistik izohlari deb ta'riflaydi. U xrononimlar orqali xalqning vaqtga, tarixga va madaniyatga bo'lgan munosabati aks etishini ta'kidlaydi

Z.M.Qodirova esa o'z tadqiqotlarida o'zbek tilidagi xrononimlar xalq og'zaki ijodi, diniy taqvim va milliy madaniyat bilan bog'liq holda shakllanganini ta'kidlaydi. U shuningdek, ingliz tilidagi xrononimlar bilan qiyosiy jihatlarni tahlil qilgan bo'lsa, M.Karimova xrononimlarni qiyosiy-madaniy aspektda o'rganib, ingliz va o'zbek tillaridagi farqlarni shunday izohlaydi: *"Ingliz tilidagi xrononimlar ko'proq sotsiokulturologik hodisalar bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilidagi xrononimlar an'anaviylik va diniy qadriyatlarga asoslanadi"* [6,15].

TAHLIL VA NATIJALAR

Xrononimlar (yunoncha *chronos* – "vaqt" va *onoma* – "ism") tilshunoslikda vaqt bilan bog'liq nomlar bo'lib, ular muayyan davrlar, tarixiy hodisalar, bayramlar yoki kalendar asosidagi birliklarni ifodalaydi. Masalan, ingliz tilida "Victorian Era", "Renaissance", "Black Friday", "Christmas", "Millennium", o'zbek tilida esa "Mustaqillik kuni", "Navro'z", "Buyuk ipak yo'li davri", "Temuriylar davri" kabi xrononimlarni misol mumkin.

Ingliz tilidagi xrononimlar ko'pincha diniy, iqtisodiy yoki tarixiy asosda shakllanadi. Masalan, *Christmas* leksemasi Iso payg'ambarning tug'ilgan kunini anglatasa, *Black Friday* – savdo-sotiq bilan bog'liq kun. O'zbek tilida esa ko'proq tarixiy va milliy qadriyatlar asosida vujudga kelgan *Mustaqillik kuni* birligi milliy suverenitetga ishora qiladi, *Navro'z* leksemasi esa "tabiat", "yangilanish" semalarini anglatadi.

Ingliz tilida xrononimlar keng va murakkab tizimni tashkil etadi. Ular asosan quyidagi manbalarga tayangan holda shakllanadi:

muayyan tarixiy davrlar nomi sifatida davrning asosiy belgilari, siyosiy rahbarlari va ijtimoiy

holatlarini ifodalashga asoslangan xrononimlar: *Victorian Era, Middle Ages, Renaissance, Industrial Revolution*;

diniy bayramlarni ifoda etuvchi xrononimlar: *Christmas, Easter, Good Friday*;

zamonaviy madaniy voqealarni ifodalovchi xrononimlar: *Black Friday, Cyber Monday*. Ular tarkibida tijoriy-tashkiliy semalar ham mavjud.

sana va oy nomlarini ifodalovchi xrononimlar: *January, February, Monday, Friday*.

Bu xrononimlar ingliz tilida nafaqat vaqtni belgilash, balki madaniy voqealarni, an'analarni va tarixiy xotirani ifodalash vositasidir. Ularning semantikasi ko'proq individuallik, tarixiy jarayonlar va ijtimoiy hodisalar bilan bog'liq.

O'zbek tilida xrononimlar ko'proq an'anaviy, diniy va milliy-tarixiy asosga ega bo'lgan birliklardan iborat:

milliy bayramlarni ifoda etuvchi, tarixiy voqealar asosida shakllangan va umumxalq qadriyatlari bilan bog'liq xrononimlar: *Mustaqillik kuni, Navro'z, Konstitutsiya kuni*;

diniy bayramlarni ifoda etuvchi, islom dini asosida shakllangan muqaddas kunlar: *Ramazon hayiti, Qurbon hayiti*;

tarixiy davrlarni ifoda etuvchi, o'zbek millati tarixida muhim o'rin tutgan davrlarning nomlari: *Temuriylar davri, Xiva xonligi davri, Sovet davri*;

arabcha va forschaga ildizlarga ega hafta kunlari, oy, yilbirliklarini ifodalovchi xrononimlar: *Yanvar, Fevral, Dushanba, Juma*.

Xrononimlar nafaqat vaqtga oid belgilarni ifodalaydi, balki xalqning tarixiy tafakkuri, bayram va an'analar tizimi, diniy e'tiqodini ham namoyon etadi. Masalan, o'zbek xalqi uchun "Ramazon hayiti" va "Qurbon hayiti" diniy xrononim bo'lsa, ingliz tilida "Easter" shunday funksiyani bajaradi. Bu birliklar orqali xalqlarning qadriyat tizimi va vaqtga bo'lgan munosabatini tahlil qilish mumkin.[5; 78, 95-b]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillarida xrononimlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ular til va madaniyat o'zaro bog'liqligini chuqur aks ettiradi. Har ikki tilda xrononimlar xalq tafakkurining, tarixiy xotirasining ajralmas bir qismidir. Ingliz tilida xrononimlar ko'proq kalendarga bog'langan va rasmiy tusga ega bo'lsa, o'zbek tilidagi xrononimlar ko'proq marosimiy va ramziy ma'no kasb etadi. Bu esa ikki xalqning vaqt va tarixga bo'lgan munosabatidagi farqlarni ko'rsatadi. Shuningdek, Ingliz va o'zbek tillaridagi xrononimlarning shakllanishida ularning madaniy, diniy va tarixiy asoslari muhim rol o'ynaydi. Ingliz xrononimlari ko'proq tarixiy davrlar va shaxslar asosida shakllangan bo'lsa, o'zbek xrononimlari ko'proq milliy an'ana, diniy taqvim va tarixiy voqealar bilan bog'liq. Har ikki tilda xrononimlar nafaqat vaqtni ifodalovchi birlik, balki xalq tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashining aksidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shamsiyev A.A. Compound Words in the Uzbek Language. – Tashkent: State University of Uzbek Language and Literature. 2015.

2. Bani M.M., Shadora S.R. A Corpus-Based Study of Collocations in the English Language // International Journal of Languages, Literature and Linguistics, № 3 (4). 2017. pp. 258-264.
3. Qosimova D. Cultural Values Embedded in Collocations: A Case Study of Uzbek Language // Journal of Language and Literature Education, № 6 (2). 2018. pp. 170-183.
4. Smith J. Cultural Translation Strategies in Central Asian Literature // Journal of Translation Studies, № 15 (2). 2020. pp. 45-62.
5. Karimov A. Challenges in English-Uzbek Literary Translation // Central Asian Journal of Literature, № 8 (3). 2021. pp. 78-95.
6. Karimova M. Talabalar o'quv faoliyatida o'zini boshqarishning shaxs xususiyatlariga bog'liqligi // Pedagogik mahorat Ilmiy – nazariy va metodik jurnal. № 3. 2021. – b. 15.
7. Fayziyeva A.A. Conceptual Metaphor Universals in English and Uzbek // Journal NX – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, № 8 (04). 2022. 54-57.
8. Sirojova Z. The problem of modality in linguistics // International Multidisciplinary Journal for Research and Development, № 11 (05). Retrieved from. 2024. pp. 210-214.